

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 204 (1265), 2024-yil 9-oktabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

MDH DOIRASIDAGI KO‘P QIRRALI MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI VA AMALIY HAMKORLIK YUZASIDAN FIKR ALMASHILDIO‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-8-oktabr kunlari
amaliy tashrif bilan Moskva shahrida bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-oktabr kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida o'tgan sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyan, shuningdek, MDH bosh kotibi Sergey Lebedev qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, ko'p qirrali munosabatlarning holati va rivojlanish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, MDH doirasidagi amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Rossianing Hamdo'stlikda raisligi davrida ko'p tomonlama hamkorlik barcha yo'nalishlarda rivojlanganini yuqori baholadi. MDH mamlakatlarining xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq vaziyatga alohida e'tibor qaratildi.

MDH mamlakatlari maxsus xizmatlari va vakolatli idoralarning tizimli hamkorligini yo'lga qo'yish, bugungi tahdidlarga qarshi kurashish usullarini takomillashtirish, kiberxavfsizlikni

ta'minlash sohasida kelishilgan choralar hamda dasturiy hujjatlarni qabul qilish muhimligi ta'kidlandi.

Hamkorlikning iqtisodiy yo'nalishida birgalikdagi faoliyatni kuchaytirish ustuvor vazifa ekanini qayd etildi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 16 foizga oshgan. Muvaffaqiyatli sanoat kooperatsiyasiga ko'plab misollar mavjud.

MDH tarmoq kengashlari va qo'mitalari faoliyatini faollashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Kelgusi yil bahorida Toshkent shahrida "Innoprom" xalqaro sanoat ko'rgazmasi doirasida MDH Iqtisodiy kengashi yig'ilishi

va Innovatsion rivojlanish forumini o'tkazish taklif etildi.

Yaqinda bo'lib o'tgan MDH mamlakatlari yetakchi tahliliy markazlarining Toshkent konferensiyasi natijalarini hisobga olgan holda, uzoq muddatli sheriklikning yangi ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlandi.

Xususan, internet texnologiyalari va "katta ma'lumotlar" industriyasini rivojlantirish, raqamli yechimlarni jadal joriy etish, kreativ iqtisodiyot, yashil energetika va yadro texnologiyalari, iqlim muammolari va boshqalar shular jumlasidan.

Shu munosabat bilan MDH mamlakatlari ekspertlari va tahlilchilarining uchra-

shuvlarini muntazam o'tkazish hamda navbatdagi konferensiyani Samarqand shahrida sun'iy intellektni rivojlantirish masalalariga bag'ishlab o'tkazish taklif etildi.

Gumanitar almashinuvlarni kengaytirish maqsadida Hamdo'stlik davlatlari madaniyati kunlarini o'tkazish taklif qilindi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash, ta'lim, san'at, kino, turizm va sport sohalarida qo'shma tadbirlar dasturini har yili tayyorlash zarurligi ta'kidlandi.

Samarqand va Toshkentni tegishli Hamdo'stlikning madaniy poytaxti va yoshlar poytaxti deb e'lon qilinishi doirasidagi loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda shaxmat va futbol bo'yicha yoshlar jamoalari o'rtasida MDH ochiq kubogi musobaqalari o'tkaziladi. Yakunda O'zbekiston Prezidenti Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonni 2025-yilda tashkilotga raislikni qabul qilgani bilan tabriklandi.

Sammit yakunda MDH doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bir qator bitim va qarorlar qabul qilindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrfi yakunlandi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.YANGI O‘ZBEKISTONNING
MA’NAVIY QIYOFASI
yoxud yorug‘ kelajak poydevori
qanday qo‘yilmoqda?O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek NAZARBEKOVning
“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari bosh muharririga
bergan intervyusi

Mamlakatlar taraqqiyotida ma'naviyat, madaniyat birlamchi masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgidek global dunyoda o'zlikni saqlab qolish, yagona xalq bo'lib olg'a intilishda san'at va madaniyatning ahamiyati katta. Yurtimizda ezgulik, insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi keng targ'ib etilmoqda. Bu jamiyatimizda sog'lom dunyoqarashni rivojlantirib, bunyodkorlik tashabbusini umummilliy harakatga aylantirishga xizmat qilyapti. Xalqimiz qalbida bugungi islohotlarga ishonch, tinch va osoyishta kunlarga shukronalik, ertangi yorug' kelajakka umidni tobora kuchaytirmoqda. Mazkur islohotlar jarayonida madaniyat va san'atga, uning taraqqiy topishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati mamlakatimizdagi vazirlik va idoralar rahbarlari bilan intervyular tashkil etib, sohadagi o'zgarishlar, kelajakdagi rejarlar, islohotlar mohiyatini ochib berishga harakat qilib kelmoqda. Ushbu an'anani davom ettirgan holda bu galgi suhbatdoshimiz madaniyat vaziri Ozodbek NAZARBEKOV bo'ldi.

— Suhbatimizni yangi O‘zbekiston g'oyasini shakllantirish, rivojlantirishda Madaniyat vazirligi faoliyati, uning o'rni, ahamiyati haqida boshlasak.

— Yangi O‘zbekiston bugun nafaqat madaniyat, balki barcha sohada dunyoga ochildi. Yangi O‘zbekiston g'oyasi, undagi islohotlarni dunyoga tanitishda sport va madaniyat eng ko'p natija beradigan soha ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

Davomi 5-betda

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS
QONUNCHILIK PALATASI
VA MAHALLIY
KENGASHLAR DEPUTATLARI
SAYLOVI KUNISAYLOV
2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!Mazkur maqola “Milliy tiklanish”
demokratik partiyasi saylovoldi tashviqoti uchun
ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida
e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYALARINING
DEMOKRATIK SAYLOVLARNI TASHKIL
ETISHDAGI O‘RNI

Demokratiyaning eng muhim belgilaridan biri adolatli saylovdur. Saylov jarayonlari fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirish bilan birga aholining huquqiy madaniyatini ham namoyon etadi. Fuqarolar siyosiy huquqlaridan foydalanib, davlatning ertangi taqdiri masalasini hal etadi. Aholining ushbu huquqlarini kafolatlash davlatning eng muhim majburiyatlaridan biri hisoblanadi. Davlat bevosita normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu majburiyatlar bajarilishini belgilashi esa muhimdir.

Davomi 2-betda



HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYALARINING DEMOKRATIK SAYLOVLARNI TASHKIL ETISHDAGI O‘RNI

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda erkin va adolatli saylov va referendumlarning qonunchilik asoslarini mustahkamlash, takomillashtirish va rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023-yil 18-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun bilan saylov komissiyalari tizimi takomillashtirilib, Markaziy saylov komissiyasi bevosita boshchilik qiladigan markazlashgan saylov organlari tizimi shakllantirilishi belgilandi. Unga ko‘ra, Markaziy saylov komissiyasi — hududiy saylov komissiyasi — tuman va shahar saylov komissiyasi — okrug saylov komissiyasi — uchastka saylov komissiyasi tizimi yaratildi.

Ilgari saylov komissiyalari tizimida mavjud bo‘lgan xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlari saylovini o‘tkazish bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahri saylov komissiyalari, Prezident saylovini o‘tkazish bo‘yicha okrug saylov komissiyalari, referendum o‘tkazish bo‘yicha okrug komissiyalari hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazish bo‘yicha okrug saylov komissiyalarini tuzish amaliyoti bekor qilinib, viloyatlar va Toshkent shahrida yuqorida sanab o‘tilgan barcha saylovlar va referendumni tashkil etish va o‘tkazishga mas‘ul hududiy saylov komissiyalarini tuzish tartibi belgilandi.

Hududiy saylov komissiyalariga oid normalar, avvalo, Saylov kodeksida, shuningdek, Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan **Hududiy saylov komissiyasi to‘g‘risidagi nizomda o‘z ifodasini topgan.**

Hududiy saylov komissiyalari tegishli hududda Qonunchilik palatasi, mahalliy

kengashlar deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Shuningdek, ushbu komissiyalar tegishli hududda Saylov kodeksi ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirib, uning bir xil tarzda qo‘llanilishini ta‘minlaydi hamda saylovni tashkil etish va o‘tkazish masalalari yuzasidan tushuntirishlar beradi.

Bundan tashqari:

— xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahri kengashiga saylov o‘tkazish bo‘yicha saylov okruglarini tuzish, ularga nom va tartib raqami berish, chegaralarini, saylovchilar soni, saylov okruglari ro‘yxati hamda okrug saylov komissiyalari joylashgan yer to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni e‘lon qilish;

— tuman, shahar va okrug saylov komissiyalarini tuzish hamda ularning tarkibi va joylashgan yeri to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni e‘lon qilish;

hududiy saylov komissiyasi tomonidan tuzilishi belgilandi.

Okrug saylov komissiyasining saylov uchastkalari va uchastka komissiyalarini tuzish, tegishli hududda deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillarini ro‘yxatga olish hududiy saylov komissiyalari vakolatiga o‘tkazildi.

Bundan tashqari, siyosiy partiyalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilarni ro‘yxatga olish, Qonunchilik palatasi deputatlari saylovda tegishli hudud bo‘yicha saylov natijalarini aniqlash va boshqa shu kabilar ham hududiy saylov komissiyalarining vakolatiga kiritildi.

Amaldagi tartibga ko‘ra, hududiy saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida sakson kun qolganida komissiya raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va komissiyaning o‘n ikki-o‘n sakkiz

Hozirgi kunda hududiy saylov komissiyasining professional tarzda ishlashini ta‘minlash maqsadida uch nafar (rais, rais o‘rinbosari va kotib) a‘zo doimiy faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, komissiya tarkibida sakkiz xotin-qiz bor.

Hududiy saylov komissiyasi bino, transport, aloqa vositalari va internet bilan to‘liq ta‘minlangan. Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkazish bo‘yicha Toshkent shahrida tuzilgan bir mandatli saylov okruglari sonidan kelib chiqqan holda har bir saylov okrug bo‘yicha birlashtirilgan komissiya a‘zosi ish yuritishi uchun yetarli sharoit yaratilgan.

Toshkent shahri hududiy saylov komissiyasi tarkibida 50 ta saylov okrug va 861 ta saylov uchastkasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ularda fuqarolar o‘z xohish-irodasini mustaqil ifoda etishi uchun barcha sharoit yaratilgan, hududiy saylov komissiyasi tomonidan uchastka saylov komissiyalari a‘zolari uchun muntazam o‘quvlar tashkil etish orqali ularning saylov qonunchiligiga oid bilim va ko‘nikmalari oshirib borildi, o‘z navbatida, uchastka saylov komissiyalari faoliyati samaradorligi ta‘minlanmoqda.

Saylov komissiyalari a‘zolari bir necha bosqichda o‘qitildi. Dastlab komissiya raisi va o‘rinbosarlari, kotiblar o‘qitilgan bo‘lsa, keyingi jarayonlarda komissiya a‘zolariga bu yilgi saylovning o‘ziga xos xususiyatlari tushuntirildi. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

Saylov tizimida hududiy saylov komissiyasining joriy etilishi saylov komissiyasining professional tarzda ishlashiga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, adolati va shaffof saylovlar o‘tkazilishini ta‘minlash orqali xalq irodasi aks etishini kafolatlaydi.

Abdulla MAG‘RUPOV,
Toshkent shahri hududiy saylov komissiyasi raisi

Kun mavzusi

MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISH SANASI MA‘LUM BO‘LDI

Markaziy saylov komissiyasining joriy yil 8-oktabrda bo‘lib o‘tgan navbatdagi majlisida saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berishini tashkil qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning saylov huquqlarini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar va boshqa masalalar ko‘rib chiqildi.

Majlisda Markaziy saylov komissiyasining saylov kuni o‘z yashash joyida bo‘lmaydigan saylovchilar uchun 2024-yil 16-23-oktyabr kunlari muddatidan oldin ovoz berish jarayonini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi.

Muddatidan oldin ovoz berish kunlari saylov uchastkalarida ovoz berish vaqti ish kunlari soat 9:00 dan 18:00 ga qadar, dam olish kunlari esa soat 11:00 dan 17:00 ga qadar davom etishi belgilandi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzuridagi saylov uchastkalarida muddatidan oldin ovoz berish ushbu saylov uchastkalari joylashgan davlatdagi mahalliy vaqt bilan soat 9:00 dan 18:00 ga qadar amalga oshirilishi belgilab berildi.

Saylov kodeksi va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunda nogironligi bo‘lgan fuqarolar o‘zining barcha konstitutsiyaviy huquqlari, jumladan, saylov huquqini boshqa fuqarolar bilan teng va erkin amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga oid qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan.

Joriy yil 27-oktabr kuni o‘tkaziladigan saylovda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 11 nafar va mahalliy kengashlarga 605 nafar nogironligi bo‘lgan

shaxs deputatlikka nomzod sifatida ro‘yxatga olingan. Shuningdek, saylov komissiyalari tarkibida nogironligi bo‘lgan 1343 shaxs faoliyat yuritayotgani bo‘lajak saylovlarda ular uchun teng imkoniyat yaratilganini ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, bo‘lajak saylovlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini kengroq ta‘minlash maqsadida nogironligi bo‘lgan 830 mingdan ortiq saylovchiga ko‘mak beruvchi volontyorlar birlashtirilmoqda.

Majlisda nogironligi bo‘lgan shaxslarga o‘z saylov huquqlarini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida saylov byulletenlarini to‘ldirish uchun brayl alifbosi asosidagi trafaret namunasi tasdiqlash, saylov uchastkalarida nogironligi bo‘lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus jihozlangan yashirin ovoz berish kabinallari, optik lupalar (kattalashtiruvchi oynalar) hamda qo‘shimcha yoritkichlar o‘rnatish hamda saylov uchastkasiga mustaqil borolmaydigan saylovchilarning saylov kuni turgan joylarida ovoz berishini tashkil etish masalalari muhokama etilib, tegishli qaror qabul qilindi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Haftalik

Mamlakatimizda 7-12-oktabr kunlari ixtirochi xotin-qizlarning ilm-fan va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatiga bag‘ishlangan haftalik bo‘lib o‘tmoqda. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bir qator vazirlik, agentlik, milliy va xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikda tashkil etgan ushbu tadbirdan maqsad xotin-qizlarni ixtirochilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, biznes g‘oya va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirish va bu jarayonlarga innovatsion yondashuvlarni keng joriy qilishdir.

Xotin-qizlarning oila va jamiyatda faolligini oshirish, huquq va manfaatini himoyalash, bandligini ta‘minlash va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish yurtimizdagi islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishiga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida ham bu borada keng qamrovli chora-tadbirlar belgilangan va izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Natijada O‘zbekiston tarixida ilk marotaba milliy parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsialargaga mos darajaga yetdi. Saylov qonunchiligimizda



ilm-fan va tadbirkorlikda yuksak yutuqlarga erishmoqda

deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi xotin-qizlar bo‘lishi zarurligiga oid norma mustahkamlangani ularni ixtirochi jabbadagi ishtirokida yangi bosqich boshlanganidan dalolatdir. Shu bilan birga, xotin-qizlarni ixtirochilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishda ko‘maklashishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ilm-fan tizimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning innovatsiya, startap va ixtirochilik faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida barcha hududlarda “XXI asr ayoli” festivali, “Hududning 100 nafar ixtirochi ayoli” hamda “INNOWOMENWEEK” haftaligi o‘tkazilayotgan. Hozirgi kunda yil davomida 25 foizdan 40 foizga oshirish bo‘yicha ulkan maqsad qo‘yilgan. Shu maqsadda Prezidentimizning tegishli farmoni asosida joriy yildan boshlab ayollarning kichik biznes va xususiy tadbirkorligini tashkil etish uchun 100 million dollar ajratildi. Joriy yilda xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-



mingdan, xususan, fermer xo‘jaliklarining 4 mingdan ortig‘ini xotin-qizlar boshqarmoqda.

Kelgusi ikki yilda kichik va o‘rta biznesda xotin-qizlar ulushini hozirgi 25 foizdan 40 foizga oshirish bo‘yicha ulkan maqsad qo‘yilgan. Shu maqsadda Prezidentimizning tegishli farmoni asosida joriy yildan boshlab ayollarning kichik biznes va xususiy tadbirkorligini tashkil etish uchun 100 million dollar ajratildi. Joriy yilda xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-

quvvatlash maqsadida 130 mingdan ortiq xotin-qizga 2,5 trillion so‘mdan ziyod kredit ajratildi. O‘z navbatida, bu imkoniyatdan unumli foydalanib, faol ishlayotgan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilgan loyihalar hisobiga qariyb 148,5 mingta yangi ish o‘rni yaratildi.

Bundan tashqari, 14 ta hududda Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari ochilib, bu yerda ayollarga har kimning ehtiyojidan kelib chiqqan va tadbirkorlik sohasida mavjud

gender cheklavlarni hisobga olgan holda xizmat ko‘rsatilyapti.

Xotin-qizlar ta‘limini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar ham opa-singillarimizning orzu-umidlari va intilishlarini ro‘yobga chiqarishda muhim omil bo‘lmoqda. Xotin-qizlarning oliy ta‘lim olish imkoniyati kengaytirilib, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalarning qizlari uchun grantlar joriy etildi. Magistratura bosqichida o‘qiyotgan xotin-qizlarning barchasiga shartnoma pullari davlat byudjetidan qaytarish shartisiz to‘lab berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat yo‘nalishida 50, magistratura uchun 10 xotin-qizga “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali qo‘shimcha grantlar ajratilmoqda. Oliy ta‘lim muassasasi, texnikum va kollejlarda sirtqi va kechki ta‘limda o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontraktini to‘lash uchun 84 ming 640 talabaga 7-yilga 872,2 milliard so‘m foizsiz kredit ajratildi.

Haftalikning dastlabki kunida poytaxtimizdagi Turin politexnika universitetida “Ixtirochi ayollar — 2024” ko‘rgazmasi hamda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish tartibi haqida o‘quv seminar tashkil etildi. Unda O‘zbekiston va Janubiy Koreya ixtirochi hamda tadbirkor ayollari innovatsion loyiha va mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

12-oktabrga qadar davom etadigan haftalik doirasida “XXI asrda ilm-fan va biznesdagi ayollar: yutuqlar va muammolar” mavzusida xalqaro forum, “Tadbirkor ayolning muvaffaqiyat siri” mavzusida janubiy koreyalik yetakchi tadbirkor ayollarning mamlakatimiz xotin-qizlari bilan uchrashuvi, Toshkent viloyatida “Hududning 100 nafar tadbirkor ayoli” ko‘rgazmasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, “Axborot texnologiyalari sohasi rivojida xotin-qizlarning o‘rni” mavzusidagi xalqaro anjuman, xotin-qizlarning axborot texnologiyalari sohasiga tatbiq qilishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulotlari, veb-sayt, mobil ilova va innovatsion loyihalarini targ‘ibotiga yo‘naltirilgan “ITWomenUz — 2024” ko‘rgazmasi va marafon tashkil qilinadi.

Haftalik tuman va shaharlarda ham davom ettirilib, “Tadbirkorlik sari qadam”, “Elektron tijorat, onlayn biznes olamidagi ayollar uchun imkoniyatlar”, Ayollar uchun raqamli banking: moliyaviy savodxonlikdan moliyaviy mustaqillikka qadar” kabi mavzularda o‘quv seminarlar o‘tkaziladi.

Bahor HAZRATQULOVA,
jurnalist



Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

SIFATLI TA’LIM VA TARBIYA — BARKAMOL AVLOD SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQARISHNING MUHIM POYDEVORI



“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi mamlakatimizda inson qadrlini ulug‘lashga qaratilgan siyosatning mazmun-mohiyatini anglagan holda “Tarbiya yo hayot, yo mamot...” g‘oyasini hayotga tatbiq etishning asosiy maqsadi hazrati insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratishda deb biladi. Inson o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun, birinchi navbatda, ta’lim olishi, ma’naviy, madaniy salohiyatini oshirib borishi, jismoniy kamolotga erishishdek fundamental huquq va erkinliklaridan to‘laqonli foydalanishi talab etiladi. Zero, “qudratli davlatga tayangan, qonunlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga uyg‘un, inson qadri baland, farovon jamiyat qurish” partiyaning bosh maqsadi hisoblanadi.

Albatta, mazkur ustuvor g‘oyalarni hayotga samarali tatbiq etish va belgilangan maqsadlarga erishish kadrlar salohiyatiga borib taqaladi. Aynan ushbu haqiqatni to‘g‘ri anglagan holda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi barkamol avlod salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalarini Saylovoldi dasturining uctuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Shu bois, partiya o‘z dasturida mazkur masalalarga nisbatan kompleks yondashuvni taklif etgan holda **ma’naviy tarbiya va sifati ta’lim**, uning barcha bosqichlarini rivojlantirish, shuningdek, **jismoniy tarbiya va sport** masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda.

Ma’naviy tarbiya va sifati ta’lim — komil insonni shakllantirishning asosiy omili sanaladi!

Ma’lumki, har tomonlama rivojlangan va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni shakllantirish poydevori, avvalo, munosib tarbiyadan boshlanadi. Sifati ta’lim olishning asosi ham tarbiyaga borib taqaladi.

Shu bilan bir qatorda, tarbiya va ta’lim o‘zaro mutanosib, bir-birini to‘ldiruvchi jarayon hisoblanib, ularni ajratib bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonida tarbiya, tarbiya jarayonida esa ta’lim o‘zini namoyon etib turadi. Bu ikki jarayonni o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etish odobli, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishning asosi hisoblanadi.

Shuning uchun ham partiya Saylovoldi dasturida **ma’naviy tarbiya va sifati ta’lim** masalasini barkamol avlod salohiyatini ro‘yobga chiqarishda asosiy mezonlardan biri sifatida belgilab, bu borada qator taklif va tashabbuslarni o‘rtaga tashlamog‘da.

Qayd etish lozimki, hatto rivojlangan, iqtisodiy taraqqiyotga erishgan qator mamlakatlar tajribasi ham tarbiya masalasi barkamol avlodni shakllantirish, ma’naviyatli inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishda hayot-mamot masalasi ekanini ko‘rsatmoqda. Bu borada millatning faxr-i iftixori bo‘lgan ma’rifatparvar jadid bobomir Abdulla Avloniyning: “**Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir**” degan da’vati ham bundan qariyb bir asr oldin aytgan bo‘lsa-da, uning ahamiyati aslo kamaygani yo‘q.

Shu sababli ham partiyaning o‘z g‘oya va maqsadlariga hamohang ravishda tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratgani, bu borada “Tarbiya” fanini takomillashtirishga tashabbus qilayotgani nafaqat ta’lim-tarbiya tizimi rivojiga, balki millatning ertangi kuni, taraqqiyoti bilan ham bevosita bog‘liq sanaladi. Shundan kelib chiqib, partiya “**Tarbiya**” darsligini muntazam takomillashtirib borish tashabbusini ilgari surmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, partiya tarbiyani jaddiy ilmiy tadqiq qiladigan, oila, bog‘cha va maktabda singdirilishi zarur bo‘lgan milliy qadriyatlar va ko‘nikmalarni aniqlash va ularni samarali singdirish metodologiyalarini ishlab chiqish masalalarini dolzarb yo‘nalish deb hisoblaydi. Bu borada partiya tomonidan milliy tarbiya asoslari va milliy ta’lim dasturlarini rivojlantirish, uzluksiz tarbiya va ta’lim uyg‘unligining huquqiy asoslarini takomila yetkazish choralarini ko‘rish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar taklif etilmog‘da.

Mazkur g‘oya va tashabbuslarning amaliyotga tatbiq etilishi ilm-fan yutuqlari va zamonaviy tarbiya metodologiyalarini ishlab chiqish va sohaga qo‘llash, bu borada milliy qadriyat va mentalitet ustuvorligidan kelib chiqib milliy dasturlarni yaratish imkonini beradi.

Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish partiyaning ustuvor vazifalaridan biri bo‘ladi!

Yurt ravnaqi va istiqbolini aynan ta’lim belgilaydi. Shiddat bilan o‘zgarayotgan bugungi zamonda ta’lim va tarbiya, ilm va intellekt bemisli ahamiyat kasb etayotganidan kelib chiqib, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga birinchi galdagi ustuvor vazifa sifatida qaraydi.

Bu borada shuni alohida ta’kidlash kerakki, maktabgacha va maktab ta’limining sifati, avvalo, pedagog va tarbiyachilarning salohiyatiga borib taqaladi. Salohiyatli pedagog va tarbiyachilar esa maqsadli tayyorlash va tanlov orqali ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etiladi.

Aynan mazkur jihatlardan kelib chiqib, partiya o‘z dasturida quyidagi tashabbuslarni bildirmog‘da:

— “Yangi avlod tarbiyachisi va pedagoglarini tayyorlash Davlat dasturi”ni qabul qilish, shuningdek, pedagogikaga layoqatli bor maktab bitiruvchilarini saralash va davlat buyurtmasi asosida o‘qishini tashkil etish;

— tarbiyachi va o‘qituvchilarni ishga qabul qilish va faoliyati jarayonida ularning oldingi ish faoliyatini o‘rganish, psixologik testlardan o‘tkazish tartibini joriy etish;

— maktablarga pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilishning shaffof tizimini joriy etish.

Mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan va malakali pedagoglar korpusini yaratishga qaratilgan mazkur tashabbuslar sifati ta’lim va tarbiyani ta’minlashda asosiy yechim hisoblanadi.

“Yangi avlod tarbiyachisi va pedagoglarini tayyorlash Davlat dasturi”da o‘z ustida ishlaydigan, to‘xtovsiz rivojlanishga ehtiyoj

Ma’naviy tarbiya va sifati ta’lim — komil insonni shakllantirishning asosiy omili sanaladi!

pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilishga asoslangan shaffof tizimini joriy etish sohada nafaqat tanish-bilishchilik, korrupsiyaning oldini olishga, balki o‘z-o‘zidan ta’lim sifatining yanada yaxshilanishiga ham imkon beradi.

Ta’lim sifati bevosita pedagoglarning salohiyatiga bog‘liq ekan, ularni ta’lim muassasasiga qabul qilish tartibini takomillashtirishga real ehtiyoj mavjud. Shuning uchun ham partiya Saylovoldi dasturidagi maktablarga pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilishning shaffof tizimini joriy etish taklifi bugungi kunga mos va dolzarb masala yechimiga qaratilgan tashabbus hisoblanadi.

Lekin “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi o‘z Saylovoldi dasturida bevosita ta’lim sifati bilan bog‘liq bo‘lgan pedagoglarni qabul qilishga emas, tarbiyalanuvchilarni qabul qilish masalasiga e’tibor qaratmoqda. Ya’ni “Adolat” partiyasi ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini ishlab chiqish, ayniqsa, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tarbiyalanuvchilarni qabul qilish tartibini qayta ko‘rib chiqish, bu borada “ochiq onlayn ro‘yxat” tashkil etish bilan bog‘liq tashabbuslar ilgari surilmog‘da. Lekin umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim, shuningdek, oliy ta’limdan



o‘quvchilari ta’lim va tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun umummilliy qadriyatlarga tayangan milliy video mahsulotlar kontentini yaratish, maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limning 1-sinflarida ona tili bilan birgalikda Davlat tilini ham o‘rgatish, 6-sinfdan tanlov asosida ikkita xorijiy tilni o‘qitish, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilimni baholash tizimini isloh qilish kabi tashabbuslarni ham uning maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish borasidagi pozitsiyasi qat’iy ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mazkur tashabbuslarning hayotimizga tatbiq etilishi bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan milliy kontentga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga, partiya g‘oya va maqsadlarida ustuvorlik kasb etadigan davlat tili nufuzini yanada oshirish barobarida xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirishga, yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash tizimini zamonaviy standart va milliy qadriyatlar uyg‘unligida isloh qilish imkonini beradi.

Kasb-hunar, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim mehnat bozori uchun malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi!

Ta’lim va tarbiyasiz har tomonlama yetuk, intellektual avlod kamolisiz taraqqiyotga ham, yuksalishga ham, farovon hayot va istiqbolga ham erishib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, ta’limga kiritilgan investitsiya eng muhim investitsiyalar sirasiga kirib, nafaqat bir mamlakat yoki xalqni, balki butun jahonni ham umumbashariy taraqqiyot va tamaddun sari yetaklaydi.

Shundan kelib chiqib, partiyamiz o‘z dasturida barcha ta’lim turlarini rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratib, sohani kompleks rivojlantirish borasidagi muhim tashabbuslarini ilgari surmoqda.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda mehnat bozorida zamonaviy kasb va boshqa fao-



ishlab chiqish, pedagoglar salohiyatini oshirish, imtihonlarni shaffof va adolatli o‘tkazish borasidagi aniq vazifalar ustida ishlash lozim.

Shu sababli partiya o‘z g‘oyalaridan kelib chiqib, barcha oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatiiga alohida e’tibor qaratishni kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa sifatida ilgari suradi.

Aslida, ta’limning nechog‘liq sifati ekanligini baholashda bundan manfaatdor bo‘lgan talabalarning fikrini o‘rganib borish muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizmining amaliyotga tatbiq etilishi esa ta’lim jarayoniga baho berish, uning iste’molchisi bo‘lgan talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida takomillashtirish imkonini beradi.

Partiya mamlakat oldida turgan strategik vazifalarni samarali hal etish ilm-fan va texnologiyalarni jadal rivojlantirmasdan mumkin emasligini yaxshi tushunadi. Shu haqiqatni to‘g‘ri anglagan holda, Saylovoldi dasturida quyidagi muhim tashabbuslar ilgari surilmog‘da:

— “Innovatsion faoliyat va uni tijoratlashtirish to‘g‘risida” va “Venchur uyushmalar to‘g‘risida”gi qonunlarni qabul qilish;

— milliy ilmiy kadrlarni tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqish, byurokratik talablarni bekor qilish, Oliy attestatsiya komissiyasini isloh etish.

Ta’kidlash kerakki, ta’lim jarayoniga zamonaviy istiqbolli ilmfan yutuqlarini joriy etish, mamlakatimizda ilmfanni yanada rivojlantirish, ilmiy faoliyatga iste’dodli, qobiliyatli yoshlarni jalb etish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, 2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa va fan doktorlari) ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa 3 baravarga oshirish rejasini belgilangan.

Shundan kelib chiqib, partiya tomonidan bildirilgan yuqoridagi tashabbuslar mamlakatimizda ilmiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, yoshlarni ilimga jalb qilish, bu boradagi ayrim byurokratik talablarni bekor qilish imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda, partiya Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan “Innovatsion faoliyat va uni tijoratlashtirish to‘g‘risida” va “Venchur uyushmalar to‘g‘risida”gi qonunlarni qabul qilish tashabbuslari faoliyatning huquqiy asoslarini mustahkamlash asosida aniq maqsad va vazifalar orqali ilmiy faoliyatni takomillashtirish, ilmiy natijalarni tijoratlashtirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jismonan sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash imkonini beradi!

Barkamol avlod salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining jismoniy tarbiya va sport masalalarida ilgari surayotgan g‘oyalarida ham mustahkam o‘rin egallagan. Zero, jismoniy tarbiya va sport kelajak avlod kamoli va aholi barcha qatlamlari uchun birdek muhim bo‘lgan masala hisoblanadi.

Umuman olganda, so‘nggi yillarda mamlakatimizda sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ijobiy islohotlar natijasida sportning qator turlari, xususan, boks, shaxmat, futbol va boshqa turlari bo‘yicha sportchilarimiz katta tarixiy natijalarga erishmog‘da. Jumladan, shaxmatchilarimiz 2022-yilda Hindistonning Chennai shahrida o‘tgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibligini qo‘lga kiritgan bo‘lsa, futbol bo‘yicha milliy Olimpiya terma jamoamiz tarixda ilk marotaba Olimpiada yo‘llanmasini

qo‘lga kiritib, joriy yilning 26-iyul — 11-avgust kunlari Fransiyada bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etdi. Shuningdek, mazkur musobaqada O‘zbekiston delegatsiyasi o‘z tarixida ilk bor 13 ta medal qo‘lga kiritib, 206 mamlakat orasida 13-o‘rinni egalladi. Paralimpiya o‘yinlarida esa O‘zbekiston delegatsiyasi 26 ta medalga ega chiqib, umumijamoa hisobida 13-o‘rinni qayd etdi.

Shundan kelib chiqib, partiya jismoniy tarbiya va sport sohasining huquqiy asoslarni takomillashtirishni, jismonan va ruhan sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash, yoshlarning keng ko‘lamda sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni, shuningdek, milliy sport turlarini qayta tiklashni ustuvor maqsad sifatida belgilagan.

Bu borada esa partiya quyidagi tashabbuslarni ilgari surmoqda:

— sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlarni ko‘paytirish;

— seleksiya ishlarida shaffoflik, xolislikni ta’minlash;

— milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini tiklash;

— milliy olimpiada sport o‘yinlari o‘tkazishini yo‘lga qo‘yish;

— yoshlarning “Besh tashabbus olimpiadasi” va xalqaro musobaqalarda ishtirok etishiga ko‘maklashish.

Alohida ta’kidlash kerakki, hech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoda tez va oson mashhur qila olmaydi. Bundan tashqari, barkamol avlodni tarbiyalashda shaxsning aqliy, ma’naviy olami bilan bir qatorda uning jismonan sog‘lom tarzda kamol topishi ham sog‘lom millatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shundan kelib chiqib, yoshlarning va umuman, butun aholimiz salomatligini ta’minlash, sportni keng targ‘ib qilish va u bilan shug‘ullanish darajasini oshirish, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini tiklash maqsadida partiya tomonidan bildirilgan yuqoridagi tashabbuslar jismonan sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashda o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Bu borada, ayniqsa, yoshlarimizni “Yoshlarning besh tashabbus olimpiadasi” va xalqaro musobaqalarda ishtirok etishiga ko‘maklashish, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini tiklash va milliy olimpiada sport o‘yinlari o‘tkazishini yo‘lga qo‘yish kabi tashabbuslar nafaqat mamlakatimizda sportning yanada rivojlanishiga, balki partiya g‘oya va maqsadlarida muhim o‘rin tutadigan milliy qadriyatlarimiz bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xalq o‘yinlari, milliy sport turlarining keyingi avlodga yetkazilishiga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sport seleksiya ishlarida shaffoflik, xolislikni ta’minlash mamlakatimizda kuchli sportchilarni saralash, milliy va xalqaro arenalarda vatanimiz bayrog‘ini yuqori pog‘onalarga ko‘taradigan sportchilarni yetishtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, partiyamizning ta’lim va fan sohasi bo‘yicha o‘ziga xos yondashuvi maktabgacha ta’limdan to‘liq ta’limdan keyingi ta’limgacha modernizatsiya qilishni nazarda tutadigan, sinergetik maqsadga erishishga yo‘naltirilgan kompleks tizimni tashkil etadi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida aks etgan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport masalalarini rivojiga qaratilgan barcha taklif va tashabbuslarni jismonan va ma’nan barkamol bo‘lgan yangi avlod kadrlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy yuksalish uchun “Milliy tiklanish” partiyasi va uning nomzodlariga ovoz bering!

Bahodir MAMATXONOV,
Vasila FAYZIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar

“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz tashabbusi, siyosiy irodasi sabab dunyo mamlakatlari bilan madaniy aloqalar mustahkamlanib boryapti. Masalan, har yili O‘zbekistonda to‘rt-beshita davlatning madaniyat kunlari o‘tkazilmoqda. O‘z o‘rnida, boshqa mamlakatlarda O‘zbekiston madaniyat kunlari tashkil etilmoqda.

Avval faqat “Sharq taronalari” xalqaro festivali o‘tkazilardi. Hozir har yili kamida 2-3 ta xalqaro festival tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, soha rivoji uchun huquqiy asos bo‘ladigan o‘nlab hujjatlar qabul qilindi. Shuning o‘ziyoq keyingi yillarda sohadagi keskin o‘zgarishlardan darak.

Xalqaro darajadagi madaniy tadbirlar O‘zbekiston imijini yaratishda qo‘l keladi, o‘zbeklar kim, degan savolga javob beradi. Yevropa, umuman, rivojlangan davlatlarda yirik ko‘rgazmalar, madaniyat kunlari, teatrlar namoyishi tashkil etish aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

O‘zbek xalqining madaniyati, ajdodlarimiz merosini xorijda keng targ‘ib qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilyapti. Bugun yurtimiz madaniyati haqida xorijda ancha keng tasavvur paydo bo‘ldi. O‘zimizning bebaho madaniyatimiz bo‘lgani holda boshqa xalqlar bilan madaniy hamkorlik qilamiz. Biroq bu hamisha ham ijobiy bo‘lmaydi. Ayniqsa, yoshlarimizga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni boshqa yo‘llarga jalb etishga xizmat qilishi mumkin. Qisqacha aytganda, yoshlarimizni mafkuraviy ta’sirlardan himoya qilishda bizga qanday qo‘llanmalar kerak?

Bu Madaniyat vazirligini doimiy bezovta qiladigan va hech qachon kun tartibidan tushmaydigan dolzarb masala. Shuning uchun bu borada har kuni izlanamiz, ijobiy yoki qidirishdan hech qachon to‘xtamaymiz. Darhaqiqat, mafkuraviy tahdidlar o‘z shaklini kun sayin o‘zgartirib boryapti. Bugun axborot jangida kim kuchli bo‘lsa, o‘sha tomon ko‘proq g‘olib bo‘lyapti. Xatarli tomon shundaki, ommaviy madaniyatning tajovuzi kun sayin ortmoqda. Afsuski, shunday vaziyatda dunyoda adolat mezonlarini ta’minlashi kerak bo‘lgan tashkilotlarning yig‘i adolatsiz qarorlar qabul qilyapti. Buni insoniyat ko‘rib, bilib turibdi. O‘ylaymanki, shunday vaziyatda madaniyat sohasi oyoqqa turishi, soha vakillari ko‘proq maydonga chiqishi kerak.

Yodimgizda bo‘lsa, o‘tgan yili 22-dekabrda Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari bugun jamiyatning, balki butun insoniyatning ma’naviy islohotchilarga juda katta ehtiyoj borligi haqida gapirgan edi. Zero, iqtisodiy rivojlangan har qanday davlatda ham ma’naviy inqirozni ko‘ryapmiz. Demak, insoniyat hayotida madaniyatning o‘rni juda muhim. Ayniqsa, bugungi globalashuv davrida. Ko‘pincha insonlarga individual madaniyat taklif qilinmoqda. Umuminsoniy madaniyatdan voz kechib, mana shunday normalarni qabul qilayotganlar ham topiladi, afsuski.

O‘zbekistonda madaniyat sohasida bo‘layotgan islohotlar mana shunday xurujlarga qarshi turishga, hozirjavoblik bilan ish yuritishga qaratilgan. Yurtimizda tashkil etilayotgan xalqaro forumlar, ularda o‘rtaga tashlanayotgan mavzular nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo yoshlarini g‘oyaviy xurujlardan asrashga qaratilgan. Ularda soha vakillari, professor-olimlarning qarashlari, xulosalari o‘rtaga tashlanmoqda. Muammoni hal qilishga qaratilgan yechimlar berib borilmoqda. Madaniyat sohasi strategiyalarida yoshlarni mo‘na’voda o‘zbek farzandi etib tarbiyalash o‘z aksini topgan. Buning uchun, albatta, vaqt kerak. Dastlabki qadamlar natija bera boshladi.

Mafkuraviy tahdidlarni biror chegara to‘xtatib qola olmaydi. Ular farzandlarimiz ongigacha yetib kelmasligi uchun faqat mafkuraviy qurolgina yordam beradi. Shu bois, bolalarimizni to‘g‘ri tarbiyalab, ko‘proq buyuk ajdodlarimiz hayoti, faoliyatini o‘rgatishimiz kerak. Genimizdagi insoniy fazilatlarini yanada faollashtirsa, har qanday tahdidga qarshi tura olamiz. Chunki yuksak salohiyatli, iste’dodli xalq vakili ekanimiz ko‘p bora isbotlangan.

Bir asr davomida o‘zligimizni unuttirishga jiddiy harakatlar bo‘ldi. O‘sha hujayralarni uyg‘otish davri keldi. Bugun yuritilayotgan siyosat ham aynan yoshlarimizni uyg‘otishga qaratilgan. Agar mana shu marraga yetishda davlatimiz rahbari bilan yelkama-yelka tursak, har qanday g‘oyaviy tahdidlar bizni chetlab o‘tadi.

Farzandlarimizni tarbiyalash, ularning ongida shakllanayotgan zamonaviy shaxs tushunchasi haqida gaplashsak. Yoshlarni zamonaviy shaxs sifatida shakllantirishda



USHBU QR-KOD ORQALI VIDEOGA O‘TING.

teatrlarning o‘rni juda katta. Avvalo, bu maqsadga xizmat qiladigan bosh bo‘g‘in — qo‘g‘irchoq teatrlari qanday holatda?

To‘g‘ri savol berdingiz. Zero, Behbudiy bobomiz aytganidek, teatr bu — ibratxona. Unda har qanday tomoshabin o‘zini ko‘radi. Agar kamchiligi bo‘lsa, isloh qiladi. Yutuqlari bo‘lsa, quvonadi. Aytmoqchimaniki, sahna asarlari, albatta, tomoshabin hayotining qaysidir qirrasini ochib beradi. Qo‘g‘irchoq teatrlarining ishlash uslubi biroq eskirdi. Kun talabiga to‘liq javob bermaydi. Hozir qo‘g‘irchoq teatrlarining kundalik vazifalarini qayta ko‘rib chiqyapmiz. Ular sahnada faoliyat yuritishi bilan birga ijtimoiy tarmoqlarda ham o‘z kontenti bilan faol bo‘lish talabini qo‘ymog‘chimiz. Har bir viloyatda bittadan qo‘g‘irchoq teatri bor. Ammo farzandlarimizning o‘n foizini ham spektakllarga qamrab olish imkoni yo‘q. Demak, qamrovni oshirishning optimal yechimi — ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish.

Teatr jamoalari yoshlarni o‘ziga jalb qiladigan kontentlar tayyorlab borishi zarur. Sahnada qanday ishlansa, ijtimoiy tarmoqda ham shunday mas’uliyat bo‘lsin. Zero, mazkur yo‘nalishda bolalarimiz uydak kompyuter, telefon orqali foydalanadigan milliy kontentlar kundaik vazifalarini bajarishi zarur. Ammo farzandlarimizning o‘n foizini ham spektakllarga qamrab olish imkoni yo‘q. Demak, qamrovni oshirishning optimal yechimi — ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish.

Ko‘pincha nabiralarim bilan suhbatlashib, ularning, bolalarimiz ongida qanday qahramonlar shakllanayotgani bilan qiziqaman. Afsuski, ular orasida milliy qahramonlar deyarli yo‘q. Avvalo, milliy qahramonlarimizni shakllantirish, bolalar ongiga singdirish zarur. Buning uchun qahramonlarni zamonaviy shaklda taqdim etish kerak. Hozir yoshlarda dunyodagi eng yaxshi kontentlarni ko‘rish, taqqoslash imkoni bor. Shuning uchun bu borada oldimdagi jiddiy vazifalar turibdi. Albatta, bu oson ish emas. Ayniqsa, mutaxassislar masalasi. Biroq bir narsadan xursandman, biz muammolar sababini ko‘ra olaymiz. Bu yechimning yarmi degani. Asta-sekin mablag‘ bilan bog‘liq va boshqa masalalarni ham hal qilamiz. Buning uchun besh-o‘n yillik dastur qabul qilishimiz zarur. Ya’ni ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilsa, aniq natijaga erishamiz. Shu ma’na, barcha choralarini ko‘ryapmiz. Avval milliy qahramonlarimizni tanlab, saralab olish kerak.

Ajdodlarimizni, qahramonlarimizni yoshlarga tanitishda ularni faqat bitta obrazda taqdim etamiz. Masalan, Amir Temurning bolaligi, o‘smirligi haqida yoshlarga mos kontentlar yo‘q. Yosh bolaga o‘rtaga yoshdagi qahramon hayoti qanchalik qiziq? Bolaga milliy qahramonlarimizning bolaligi, o‘smirlarga o‘ziga teng yoshdagi holatini ochib berishimiz kerak axir. Yuqorida aytilgan konsepsiya shular ham nazarda tutilgan.

Keling, endi ijtimoiy, maishiy yo‘nalishda ham suhbatlashsak. Bu yil madaniyat sohasi vakillaridan 35 nafariga imtiyozli uylar berildi. Ijod, san’at ahliga yana qanday imtiyozlar, yengilliklar, qo‘llab-quvvatlovlar bor?

2019-yilda madaniyat xodimlariga uy qurib berish uchun vazirlikka yer ajratildi. Bunyodkorlik ishlarida tadbirkorlar bilan

hamkorlik qildik. Ular bizga arzon narxda uylar qurib berdi. Shundan 35 ta uyni soha vakillariga topshirdik. Nasib qilsa, bahorda yana 40 ga yaqin uyni egalariга berishni maqsad qilganmiz. Bu ham yurtimizda madaniyat sohasiga qaratilayotgan e’tibor samarasi.

Ochig‘i, ayrimlar madaniyat-san’at vakili deganda katta sahnadagi sanoqli san’atkorini tushunadi. Sohaning qolgan 40 ming vakilini ham shunday tasavvur qiladi. Ammo soha vakillari ichida ijtimoiy ahvoli og‘ir bo‘lganlar talaygina. Bir necha bor yotoqxonada yashaydigan san’atkorlarning uyiga bordim. Ahvolni ko‘rib, to‘g‘risi, achinasiz, bir xonali uйда 5-6 kishi yashayapti. Yigirma yildan beri shu ahvolda yashab kelayotganlar bor. Shu uydak farzandlarni ulg‘aytirgan, el xizmatiga qo‘shgan. Agar ular shu holda tashlab qo‘ysangiz, umrbod shaxsiy uyiga ega bo‘lmagligi mumkin. Chunki ular sohaning fidoyilari. Ishini yaxshi ko‘radigan insonlar. Qiyinchiliklarga qaramay, maosh kam bo‘lganida ham o‘zini biznes yoki boshqa sohaga urmagan. Eng bo‘ronli, ayozli kunlarda ham sohani yelkasida ko‘tarib kelgan aynan o‘shalar. Madaniyat va san’atga o‘zini bag‘ishlagan odamlar ular. Axir imtiyoz, rag‘batga eng munosib insonlar shular emasmi?!

Ilgari madaniyat xodimlari boshqa sohalardagiga nisbatan majburiy mehnatga ikki baravar ko‘proq jalb etilardi. Faoliyatga haq to‘lanmaslik ko‘plab xodimlar hafsalasini pir qilgan edi. Ayniqsa, raqs guruhlari, folklor jamoalari, orkestrlarda, xon jamoalarida faoliyat yuritadigan, faqat maosh evaziga hayot kechiradigan xodimlarga ikki-uch oylab haq to‘lanmasdi. Biroq ular har kuni ishga borardi. Katta tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida hatto suv berilmagan vaqtlar bo‘lgan. Bugun davlat tadbirlarida ishtirok etayotgan ijodkorlar mehnati haqli ravishda rag‘batlantirilmoqda. Albatta, muayyan vaqtdan beri hududlardagi tashkilotlar bunday xizmatdagi bepul foydalangan. San’atkorlar tekin xizmat qilishi kerak, degan qarash shakllangan. Buni bir yo‘la o‘zgartirish oson emas. Asta-sekin mana shunday eskicha qarashlarga barham berilyapti. Bu jihatlar sohadagi katta masalalar yechimi bo‘ldi.

Soha vakillariga berilayotgan imtiyozlar, qolaversa, ularning huquqlari haqida batafsil tushuncha berganingiz uchun rahmat. Huquqbuzarlik holatlari, korrupsiya va unga qarshi kurash masalalari haqida ham aytib o‘tsangiz.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda Jumladan, Madaniyat vazirligida ham korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish masalasida ish rejalarini qabul qilgan. Mazkur yo‘nalishda to‘g‘ri yechim har qanday pul operatsiyasida inson omili bo‘lmagligida deb bilamiz. Shu bois, sohada mutlaq raqamlashtirish ishlari boshlangan. Ayniqsa, iqtisodiy yo‘nalishlarda raqamlashtirish dalil kechaypti. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limimizda huquq-tarifat organlari xodimlari bilan hamkorlikda targ‘ibot, tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Teatrlar, filarmoniyalarning rahbarlari — ijodkorlar. Iqtisodiy bilimi yetarli bo‘lmagan kishi bu borada xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli yuqori. Bunday xatolarning oldini olish uchun profilaktik suhbatlar, treninglar, davra

suhbatlari tashkil etyapmiz. Ushbu tadbirlardan ko‘rinayptiki, soha xodimlari yuridik bilim borasida qiyinalmoqda.

Bilim yetishmasligi nafaqat korrupsion, balki jinoyi holatlarga yo‘l ochadi. O‘zining huquqini ham bilmay muammolar girdobida qolishga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida majburiy mehnat haqida aytdik. Ayrim tumanlarda hatto soha vakillari o‘z tashabbusi bilan tadbirlarda tekin ishtirok etib yurgan holatlarga duch kelyapmiz. Agar yuridik bilim bo‘lsa, inson adolatsizlikka betoqat bo‘ladi. Natijada qonunlar barcha joyda birdek ishlashi ta’minlanadi.

Soha xodimlarining huquqiy bilimlarini Adliya vazirligi bilan hamkorlikda oshirib boryapmiz. Ular belgilangan reja asosida joylarda huquqiy saboq bermoqda. Bu ko‘p duch kelishim mumkin bo‘lgan xatolarning oldini olishda katta yordam beryapti. Yuqorida aytganimizdek, islohotlar davom etadi. Kelgusi yil sohani to‘liq raqamlashtirib, korrupsion holatlarga barham berishni reja qilganmiz.

Suhbatga tayyorlanish jarayonida muxlislarimizga murojaat qilib, ularni eng ko‘p qiziqtirgan savollarga xolis va asosli javob olishni niyat qilganmiz. Shunday savollardan biri mamlakatimizda ilk bor o‘tkazilgan “Ovoz” tanlovi haqida bo‘ldi. Tanlov o‘z muxlislarini topdi. U madaniy yo‘nalishdagi ishlaramizni bezadi, desak ham bo‘ladi. Shu bilan birga, ayrim bahslarga ham sabab bo‘ldi. Aytinch, endi rejalar qanday? Tanlov davom ettiriladimi?

Albatta, hozir “Ovoz-bolalar” mavsumi boshlandi. Bu aslida Niderlandiyadan sotib olingan loyiha. Uning franshizasini tadbirkorimiz sotib olgan. Franshiza talaba ko‘ra, bolalar mavsumidan keyin “Ovoz 60+” mavsumi e’lon qilindi.

Haqiqatan, tanlov jurnalist va blogerlar orasida bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Lekin masalaning mohiyatiga qiziqib qarasa, holat butunlay boshqachga ekan ko‘rinadi. Masalan, butun dunyoda ijodkorlarga yelka tutadigan metsenatlar bor. Madaniyat sohasining deyarli 30-40 foizini shu metsenatlar qo‘llab-quvvatlaydi. Yurtimizda madaniyat sohasiga o‘z tashabbusi bilan yordam bermoqchi bo‘lgan tadbirkorni uchratish qiyin. Chunki tadbirkorlarimizda bunday madaniyat shakllanmagan. Bizda mazkur yo‘nalishni rivojlantirishga ehtiyoj bor. Xo‘sh, sohaga metsenatlarni qanday jalb qilamiz? Buni o‘sha franshizasini sotib olgan tadbirkorni qo‘llab-quvvatlash orqali ta’minlaymiz. “Ovoz” loyihasida biz tadbirkorning yonida turdik. Agar bu loyiha omadli davom etsa, ertaga yana boshqa yirik rejalarini ham amalga oshirishda ko‘makchi bo‘ladi. Tadbirkor madaniyat sohasi sabab el orasida obro‘ topsa, foyda ko‘rsa, boshqalarda ham sohaga qiziqish uyg‘onadi. Kelgusida madaniyat sohasiga metsenatlik qilayotgan tadbirkorlarga imtiyozlar berish borasidagi masalani o‘rganib chiqaymiz.

Madaniyat sohasiga tadbirkorlar e’tiborini jalb qilish butun dunyoda natijador biznes hisoblanadi. O‘zbekistonda 20 nafar san’atkor boshqa kim shu sohada biznes qilyapti? Teatrlar, filarmoniyalar daromad ko‘ryaptimi, yo‘q! Ushbu yo‘nalishda ishlar to‘g‘ri tashkil etilsa, madaniyat sohasining katta qismi tadbirkorlar hissasi bilan rivojlanadi. Masalan, ayrim davlatlarda teatrlarning 20

foizi davlat zimmasida, qolgan 80 foizi xususiy. Shunday tajriba bor ekan, nega bizda madaniyat sohasiga 100 foiz davlat byudjetidan mablag‘ ajratilishi kerak?!

Bugun sohaga ajratilayotgan ikki milliard so‘m 20 milliard bo‘lib qaytishi lozim. Kelgusi rejalarini shunga qarab tuzyapmiz. Hozir Madaniyat vazirligi yuz foiz davlat byudjetidan mablag‘ oladi. Islohotlar to‘la amalga oshishi uchun eskicha shakldan butunlay voz kechib, bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishimiz kerak. Ha, Madaniyat vazirligi sohaga tadbirkorlarni jalb qilish bilan shug‘ullanishi zarur. Tabiiyki, sohada majburiyatlar ham bor. Masalan, maqom, folklor, askiya yo‘nalishlari. Ular tadbirkor uchun jolibador bo‘lmagan tufayli nazardan chetda qolmasligi shart. Biz ana shunday katta marralarni mo‘ljal olganmiz va uni, albatta, zabt etamiz. O‘sha kun muqarrar keladi.

Muqarrar kun deb ajoyib ibora aytdingiz. “Ovoz”ning keyingi bosqichining muddati aniqmi?

Aniq. Bitta mavsum 4 oy davom etadi. Bolalar mavsumi 4 oy davomida o‘tkazilgach, keyin “Ovoz 60+”ga start beriladi. Shu hisobda “Ovoz 60+” kelgusi yil avvalidan boshlanadi.

Tanlovlar haqida gapirganda bir savol tug‘iladi: katta avlod vakillari “Oltin fond” haqida ko‘p eslaydi. Aytganingizdek, “Oltin fond”ni qayta tiklashning muqarrar kuni kelmadimi?

Bilasizmi, o‘sha paytda nafaqat “Oltin fond”, balki barcha asarlar bir necha muharrir sinovidan o‘tib, efigra uzatilar edi. O‘sha jarayonda qo‘yilgan talablar ijodkorlarni charxlardi. Ularning salohiyati oshib borishiga xizmat qilardi. So‘zni, harflarni to‘g‘ri talaffuz qilish masalasi ham jiddiy nazorat qilinar. Shu bois, “Oltin fond”ga kirish mashaqqatli kechardi. Bugun ham O‘zbekiston davlat radiosi bu jarayon davom etyapti. Fond radioda joylashgan, komissiya bilan qo‘shilgani ko‘rib, tekshirib qabul qilyapti.

“Oltin fond” tom ma’noda bebaho. Sababi, zabardast ijodkorlar asarlari “Oltin fond”da saqlanaypti. Ular vaqti-vaqti bilan xalqimiz e’tiboriga havola etilyapti. Bugun “Oltin fond” kabi tahrir, saralash bilan shug‘ullanadigan hay’at yo‘q. Ehtimol, shu bois, bugun qo‘shilgani saviyasi shunday ketayotgandir. Tele-radioasarlari ham mazmunan sayoz. Savol tug‘iladi, nega bugungi ijodkorlar shunday qo‘lib qoldi? Nima uchun ba’zi jiddiy ijodkorlar ham bachkana qililar qilyapti?

Hozir butun dunyoda shunday tendensiya keytapti. San’at asarlari emas, bachkana narsalar ko‘proq muxlislarini jalb qilmoqda. Ijodkorlar esa iste’molchi istagan narsani hech o‘ylanmasdan tortiq etyapti. Shu bois, bu yerda bir tomonni to‘liq aybdor qilib bo‘lmaydi. Qars ikki qo‘ldan chiqar ekan, faqat ijodkorlarni ayblash, ularni tartibga chaqirish bilan masala yechilmaydi.

Prezidentimiz mazkur masalaga yechimni aygan. Bu borada allaqachon ishlar boshlangan. Ya’ni o‘rta maktablarda musiqa fani chuqurlashtirib o‘tilishi yuqori didli muxlislarini tarbiyalashga qaratilgan. Musiqiy bilim o‘quvchida hech bo‘lmasa asarlarni saralay olish borasida boshlang‘ich ko‘nikmani shakllantiradi. O‘g‘il-qizlarimizga milliy sozlarga ko‘nikma hosil qilish talabi qo‘yilmoqda. Maktab o‘quvchisi yetitta sozdan birini chala olishi kerak. Bu vaqt o‘tishi bilan ijobiy natija ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda bolaligim bilan bog‘liq holatni eslab o‘tmog‘chiman. O‘shanda mahallalarda muxlislarini tarbiyalashga qaratilgan. Musiqiy bilim o‘quvchida hech bo‘lmasa asarlarni saralay olish borasida boshlang‘ich ko‘nikmani shakllantiradi. O‘g‘il-qizlarimizga milliy sozlarga ko‘nikma hosil qilish talabi qo‘yilmoqda. Maktab o‘quvchisi yetitta sozdan birini chala olishi kerak. Bu vaqt o‘tishi bilan ijobiy natija ko‘rsatadi.

Yana bir misol, hazrat Alisher Navoiy davrida bozordagi xaridor savdogarga bayt aytib murojaat qilsa, sotuvchi ham she’riy javob qilgan. O‘sha joyning o‘zida ijodiy muhit shakllangan. Hamma she’r va g‘azallarni yod bilgan va bemalol javob bera olgan. Navoiy bugun yangi g‘azal yozsa, ertasiga butun el og‘ziga tushib yod bo‘lgan. She’riyatga, san’atga mukkasidan ketgan jamiyat bo‘lgan va shuning uchun Navoiy davri baho shakllangan. Jamiyatimizda ham musiqiy bilim shakllansa, ijodkor ham, muxlislar ham birdek yuksaladi. Bunday muhitda o‘zlik, milliy san’at o‘z-o‘zidan saqlanadi, rivoj topadi.

Prezidentimiz bugun san’at va madaniyatga alohida e’tibor qaratmoqda. Hatto pandemiya chog‘ida ham madaniyatga jiddiy e’tibor berildi. Demak, mamlakatimizda madaniyat sohasi har qanday vaziyatda ham muhim deb qaraladi. Bu imkoniyat sohadagi ko‘p muammolarni yechishda yordam beryapti. Masalan, maqom va baxshichilikka asoslangan oliy ta’lim muassasasi tashkil etildi. Joylarda maqom, baxshichilikka ixtisoslashgan maxsus maktablar ish boshladi. Har bir hududda maqom va baxshichilik markazlari, ansambllari tuzildi. Bular bizni haqli ravishda quvontiradi. Endi maktabda musiqa bilimini chuqur o‘rgangan avlod jamiyatga qo‘shilsa, yuqorida aytilgan masalalarning barchasi yechim topadi.

Aksariyat muxlislarini qiziqtirgan yana bir masala, san’atkorlarga litsenziya berish tartibi haqida. Bilamizki, bu borada ham bahs va munozaralar bor. Qaysidir san’atkorlar litsenziyasini olib qo‘yish yoki qaytarib berish tartibi, omillari qanday?

Ilgari, taxminan 7-8 yil avval san’atkorlar yiliga 20-30 milliongacha boj to‘lardir. Bugun o‘sha birinchi kategoriyadagi san’atkorlar yiliga 6 million davlat boji to‘laydi. Ya’ni san’atkorlardan soliq undirish uchun litsenziya joriy qilingan. Bu jihat ham doim bahslarga sabab bo‘lib kelyapti.

Ijodkorlar daromadini nazorat qilish, ochiq, shaffof tarzda soliq to‘lash tizimi haqida ish olib boryapmiz. Soliq qo‘mitasi bilan hamkorlikda adolati mexanizm ishlab chiqishni maqsad qilganmiz. Chunki Toshkent shahridagi butun yurtga, kerak bo‘lsa, xorijdagi muxlislarga ega san’atkor bilan olis tumandagi ijodkor birdek soliq to‘lashi adolat mezoniga doim ham mos kelmaydi. Shu bois, ijodkorlar uchun soliq turini joriy etish masalasi eng og‘riqli nutqa.

Litsenziyalarni olish, bekor qilish masalasi, asosan, o‘sha davrda san’atkorlarning odoab-xoljiga bog‘liq holda ko‘rib chiqilar edi. Ochig‘i, avval litsenziyani olish, berish ijodkorlarni boshqarishning o‘ziga xos usuli bo‘lgan. Hozir litsenziyani bekor qilishni sud qarori bilan amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Buning uchun Adliya vazirligi muayyan talablarni ishlab chiqqan. Vazir sifatida ijodkorlarni mutlaq erkin qo‘yish tarafdori emasman. Chunki har bir ijodkor ma’naviy qurol. U kinningdir maqsadi yo‘lida xizmat qilmasligi kerak. Ayni damda tartib va cheklovlar hech kinning huquqini poymol qilmasligi shart. Kelgusida buning ham aniq, sog‘lom mexanizmlarni ishlab chiqishimiz zarur. Ayrim hollarda axloqiy normalar buzilyapti deb chora ko‘rsak, jamoatchilik uni senzura, tazyiq o‘tkazish deb qabul qilyapti. Shu bois, oltin o‘rtaligini topib, yechim sifatida qaror qabul qilishimiz lozim.

Xalqaro tadbirlar O‘zbekiston imiji uchun nima beradi?

Yangi O‘zbekiston dunyoga ochilmoqda. Dunyo mamlakatlari bilan do‘stona munosabatlar shakllanaypti. Bunday aloqalar yanada mustahkam bo‘lishi uchun O‘zbekistonning imijini takomillashtirish, targ‘ib etishimiz kerak.

Ayrim davlatlar fuqarolari, ishbilarmonlari mamlakatimiz Afg‘oniston bilan qo‘shni bo‘lgani uchun beqaror davlat deb o‘ylaydi. Bunga o‘zim bir necha bor guvoh bo‘lganman. Ular, avvalo, sizlarda tinchlikni, deb so‘raydi. Xalqaro festivallarning O‘zbekistonda o‘tkazilishi, xorijlik mashhur shaxslar, vazirlar, professor, olimlar tashrifi shu kabi savollar, shubhalarga barham beradi. O‘tkazilgan festivallarga kelgan ayrim xorijliklar orasida xavotir bor edi, adashgan ekanman, tinch va go‘zal davlat ekan, deganlari ham bo‘ldi.

Xalqimizning munosabati, mehmondo‘stligini ko‘rib, ularning fikri mutlaq o‘zgarmaydi. Buning barchasi mamlakatimiz imijiga ijobiy ta’sir qiladi. Ikkinchi tomondan, festivallar o‘tkaziladigan hududda infratuzilma, shaharsozlik yaxshilanadi. Xizmat ko‘rsatish, savdo ishlariga ehtiyoj ortib, tadbirkorlar ko‘proq daromad topadi. Chunki qariyb 2 ming odam tashrif buyuradi. Yangi ish o‘rinlari baholali daromadda oshadi. Qolaversa, festivallar xalq mamlakat manfaatini ko‘zda tutadigan ezigu maqsad, g‘oyalari asosida o‘tkaziladi. Yuqorida ham bu borada fikr aytdik, takror bo‘lsa ham yana qaytarmog‘chiman. Globalashuv davrida o‘zga kuchlar har bir insonga individual madaniyat taklif qilyapti. Bunday qarash nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlariga ham tahdid solyapti. Befarq bo‘lsak, bunday kuchlar insoniy madaniyatni tanazzulga olib kelishi mumkin. Biz o‘sha umuminsoniy fazilatlarini saqlab qolish uchun ham madaniyatlar uchrashuvi maydonini asrashimiz kerak. Festivallarda eng ko‘p o‘rtaga tashlanayotgan, ilmiy konferensiyalarda muhokamalarga sabab bo‘layotgan mavzu aynan umuminsoniy madaniyatni asrab qolishga qaratilgan.

Tahdidlarning oldini olish shartlaridan biri xalqlar bir maqsad atrofida birlashishidir. Yakka holda katta tahdidlarga turib berish oson kechmaydi. Buning uchun dunyo xalqlari san’ati, urf-odatlari va qadriyatlarini qalbid saqlagan holda boshqalar bilan o‘rtqolashib, kelgusi yo‘lni xalqaro tadbirlarda ilmiy bahslar orqali mustahkamlab olishi kerak.

Salim DONIYOROV suhbatlashdi.

Ibratli umr saboqlari

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining katta qismini dostonlar tashkil etadi. Dostonchilik millatning tafakkur olamini ochib beradi. Ayni paytda yaratuvchi va bunyodkor xalqimizning ideal orzu-umidlari, kurash va intilishlari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, axloqiy-ruhiy va milliy qadriyatlarimiz ifodasidir. Shu bois, yuzlab dostonlarni xotirasida saqlab, uni kuylaganida xalqni o‘ziga qarata olgan baxshilarni yuzboshi deb ham atashgan. Xalqimizning ma’naviy olami shunchalik boyki, bu uning dostonchilik, baxshichilik maktabi misolida ham ko‘rinadi. Masalan, Xorazm baxshichilik maktabi bilan samarqandlik baxshilarning doston aytishi tubdan farq qiladi. Ana shunday katta ijodiy muhitlardan biri Surxon vohasidagi Sherobod dostonchilik maktabidir.

Ko‘ngilga quyilgan ilohiy so‘z

Abdunazar Poyonov ijodiga chizgilar

Zafar TEMIROV,
Respublika baxshichilik san’ati
markazi direktorining ijodiy
masalalar bo‘yicha o‘rinbosari



Bu dostonchilik maktabi Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining bir necha tumani, Tojikiston va Turkmanistonning janubi, qisman Shimoliy Afg‘oniston sarhadlaridan yetishib chiqqan yuzlab baxshilarni birlashtirgan. Sherobod dostonchilik maktabi tufayli Surxondaryo va Qashqadaryoda dostonchilik an‘analari bugun ham rivoj topmoqda.

Surxondaryo viloyati baxshilari repertuarida mamlakatimizning boshqa dostonchilik maktablarida uchramaydigan, umumo‘zbek va umumturkiy eposni boyituvchi qator dostonlar va alohida turkumlar bor. Jumladan, “Alpomish” turkumini to‘ldiruvchi “Beva Barchin”, baxshi e’tiqodini aks ettiradigan “Ollanazar Olchinbek”, “Go‘ro‘g‘li” turkumini yanada mukammallashtiradigan “G‘aribnoma”, “Shahidnoma”, “Qasamyod”, “Amirqul”, “Nurali va Semurg”, “Sheralining bandi bo‘lishi”, “Soqibulbul”, “Suluvxon”, “Suv parisi” dostonlari voha baxshilarigagina xos.

Xo’sh, Surxondaryo dostonchiligi bugun ham davom etib, ushbu maktabda rivoj topayotganining sababi nimada? Qaysi sohada ustoz-shogirdlik an‘anasi izchil davom etsa, o’sha yo‘nalishdagi shonli tarix yorug‘ kelajakka bog‘lanadi. Xususan, baxshichilik maktabida ham.

Ustoz baxshi dastlab shogirdning qobiliyatiga, xotirasiga, eshitgan kuy va matnlarni qanchalik yodda saqlashiga diqqat qiladi. Shogird esa baxshining el orasidagi nufuzi, bilimdonligi, sozandaligi, so‘zga chechanligi, matnlarni qiziqarli ijro eta olishiga ko‘ra ustoz axtaradi. Bu an‘ana bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Shu bois, Surxon vohasi dostonchiligi barhayot. Unda O‘zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonovning munosib hisssasi bor.

Sherobod dostonchilik maktabiga mansub Abdunazar Poyonov o‘lmas san’atni badihago‘y, kuychi-shoir sifatida maromida davom ettirdi. U 1954-yil 20-may kuni Surxondaryo viloyati Boysun tumani Xomkon qishlog‘ida tug‘ilgan. Baxshi faoliyati 1984-yillardan boshlagan. U dastlab Xo’shboq baxshi Mardonaqulov, so‘ng Chorshanbi baxshi Rahmatullayevdan baxshichilik sirlarini o‘rgangan. 1985-yilda birinchi marta Xorazm viloyati Shovot tumanida bo‘lib o‘tgan baxshi-shoirilar respublika ko‘rik-tanlovida ishtirok etgan. O‘shandan boshlab to‘ umrining so‘ngi — 2022-yilning bahorigacha respublika va xalqaro ko‘rik-tanlovlar va

festivallarda doimiy qatnashib, katta yutuqlarga erishdi.

Jumladan, 1987-yilda Toshkent shahrida respublika baxshi-shoirilari ko‘rik-tanlovida O‘zbekiston FA Adabiyot instituti sovrinini qo‘lga kiritgan. 1999-, 2001- va 2003-yillarda Surxondaryo viloyati baxshi-shoirilar ko‘rik-tanlovlarida faxrlı o‘rinlarni egallagan. 2001-yilda Markaziy Osiyo davlatlari baxshi-shoirilari va oqinlari ko‘rik-tanlovida faxrlı birinchi o‘rinni olgan. 2000-yil iyun oyida Turkiyaning Anqara shahrida “Turk dunyosi oqinlari” xalqaro anjumanida ishtirok etib, g‘oliblik diplomi va medalini qo‘lga kiritgan.

Baxshi nafaqat turkiy xalqlar, balki butun dunyoda milliy san’atimizni keng targ‘ib etishga munosib hissa qo‘shgan. Masalan, u Fransiya, Shveysariya va Belgiya kabi mamlakatlarda konsertlarda ishtirok etib, olqishlarga sazovor bo‘lgan.

Abdunazar baxshi ijodi xorijlik mutaxassislarda katta qiziqish uyg‘otgan. Xususan, Janubiy Koreya televideniyesi Abdunazar baxshining faoliyati va ijodi haqida ko‘rsatuvlar tayyorlagan.

Abdunazar baxshi Poyonovning dostonchilikdagi o‘rni qanchalik ahamiyatli

Malik Murodov va filologiya fanlari nomzodi Abdulim Ergashev 1998-yilda baxshidan “Alpomish”ni yozib olib, nashrga tayyorlagan.

Taniqli jurnalist Normurod Norqobilov “Jo’shqin daryo” badiasida Abdunazar baxshi Poyonov hayoti va ijodi haqida yozgan. Jurnalist Abdunazar baxshi yigirma yetti yoshigacha qo‘liga do‘mbira tutmagan, terma yoki doston kuylamaganini aytadi. Odatda katta iste’dollar bolaligidan o‘zini ko‘rsata boshlagani haqidagi ma’lumotlarga ko‘nikib qolganmiz. Ammo Abdunazar baxshida bu butunlay boshqacha kechgan. U sal demasa 30 yoshga yetganida baxshichilik qila boshlagan. Ammo Abdunazar

Gohida maslahatlarini ham ayamasdi. Ammo baxshi bo‘lishni xayoliga ham keltirmasdi. Bu holatni buloqning ko‘z ochishiga o‘xshatish mumkin. Abdunazar baxshi cho‘qqisi qordan oqarib turadigan azim va vazmin tog‘lar singari baxshilarni tinglab, dostonlar zamiridagi katta falsafani hazm qildi. Tog‘ boshida erigan qorlar tosh-tuproqlar oralab yerga singadi va bir joydan buloq bo‘lib chiqadi. Abdunazar baxshi o’sha buloq kabi ko‘z ochdi. Uni dastlab ilk ustozı Xo’shboq baxshi kashf etdi.

Vaqt o‘tishi bilan o‘z sozi va so‘ziga ega bo‘ldi. Sherobod baxshichilik maktabi ustozlaridan biriga aйлandi. Abdunazar baxshi o‘zi ustoz bo‘lishiga qaramay, Chorshanbi baxshi Rahmatullayevning ham shogirdi hisoblanadi. Chunki Chorshanbi baxshi ham dostonlarning konidir. Surxonda unga teng keladigan baxshi topilmasdi. Biladigan dostonlari yetmishdan oshgan, termalari esa juda ma’noli bo‘lgan. Do‘mbirani ham juda chiroyli chertgan. Abdunazar baxshi bu ikki ustozidan baxshilik sirlarini o‘rgangach, qashqadaryolik Qodir baxshi Rahimovning oldiga boradi. Undan maslahatlar olib qaytadi. Baxshi faqat dostonlarning o‘ziga xos talqinlarini o‘rganib, ijro qilish yetarli emasligini his etadi. Ayni dam quvvayi hofizasidagi dostonlar unga o‘z so‘zi, dostonini yaratish ehtiyojini tug‘diradi. Shu tariqa Abdunazar baxshi o‘zi ham dostonlar yozishga kirishadi. U el oralab doston kuylab yurarkan, qatag‘on zamonida Boysun tomonda Tursun mergan degan bir zo‘r polvon yashab o‘tganini eshitadi. Uning ishlardan hayratlanadi, shu odamni doston qilishga bel bog‘laydi va dostonni tezda yozib, uni “Tursun mergan va Ramazon chobag‘on” deb nomlaydi. Bu doston kitob holida chop ham etiladi. Bu baxshining o‘zi yaratgan birinchi dostoni edi. Baxshi bu dostonida Tursun merganni ta’rif

etib, kishilarni mardlik va halollikka undaydi. Abdunazar baxshi Poyonov repertuari o‘ziga xos, takrorlanmas tarzda boy va rang-barangdir. Bir tomondan, qadim-qadimdan ajdodlarimiz yaratib, avloddan avlodga, tildan tilga o‘tib kelgan an‘anaviy xalq dostonlarini ustoz baxshilardan o‘rganib, ularni zo‘r mahorat, yuksak iqtidor bilan kuyladi. Ikkinchidan, kuchli badihago‘ylik bilan yangidan yangi termalar, zamonaviy dostonlar yaratib, ularga kuylar bastaladi. Uları zo‘r mahorat bilan, davradagi tinglovchilarni selday oqizib kuyladi. Surxondaryo baxshilari repertuaridan “Alpomish” dostoni mustahkam o‘rin olgan. Baxshilar bu dostonni alohida zavq-shavq, mehr-muhabbat va maroq bilan, ayni vaqtda o‘ta mas’uliyat ila kuylaydi. Chunki bu hududda baxshilar ham, yerli aholi ham Alpomishni ayni shu hududda yashagan tarixiy shaxs, o‘z ajdodi deb biladi. Uni nihoyatda samimiyat bilan tilga oladi.

“Alpomish” dostoni jismoniy jihatdan baquvvat, ma’naviy, axloqiy va ruhiy jihatdan esa yetuk, mukammal ideal qahramonlarni tarannum etadi. Ushbu dostonda vatan va vatanparvarlik, mardlik, botirlik, muhabbat va sadoqat, oila va farzand, qarindosh-urug‘ va mehr-oqibat, or-nomus, milliy vijdon, barcha xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan go‘zal umumbashariy fazilatlar, qadriyatlar ifoda etiladi. Hamma vaqt, hamma zamon uchun ham insoniy ideallar ulug‘lanadi. Abdunazar baxshi ijro mahoratini aynan “Alpomish” dostonini kuylash jarayonida egallagan, desak xato bo‘lmaydi. Zero, baxshi repertuaridan mustahkam o‘rin olgan “Alpomish” dostonida Sherobod dostonchilik maktabiga xos xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Abdunazar baxshi “Alpomish” dostonining yana bir yangi variantini yaratgan. U

Abdunazar baxshi “Alpomish” dostonining yana bir yangi variantini yaratgan. U kuylagan “Alpomish” dostoni Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘li ijrosidagi dostonidan ba’zi o‘rinlari bilan farqlanadi. Bundan tashqari, Abdunazar baxshining 200 ga yaqin termasi bor. Bu termalar insonni komillikka chorlovchi g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan. Yana mavzu jihatdan xilma-xilligi bilan tinglovchilarni o‘ziga jalb qiladi. Ularning ichida pand-nasihat ruhida yozilganlari ham mavjud.

ekanini “Alpomish” dostonining Surxondaryo varianti uning ijrosida yozib olinganida ham ko‘rinadi. Professor, filologiya fanlari doktori

Poyonov bolaligidan baxshilarni tinglab ulg‘aygan. Kuchli zehni bilan baxshilarning sozi va ovoziı yaxshigina baholay olardi.

Toshoyna

“MILLAT TAQDIRI SENING QO‘LINGDA!”

Bolalik kengliklarga esh bo‘lgan, sof insoniy tuyg‘ular bilan yashaydigan gul davr. U bejiz umrning bahori deyilmaydi. Bu davrda nozik tuyg‘ular tarbiyalanadi: vatanga muhabbat, oilaga sadoqat, erkin fikrga ega bo‘lish kabi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir holatni ko‘rib, yuqorida sanab o‘tgan tuyg‘ularning bolalikka umuman begona bo‘lib qolishi, ular o‘rnini g‘azab, qo‘rquv, ruhiy og‘riqlardan xoli joyni izlash kechinmasi egallaganini ko‘rdim. Voeqa bunday bo‘ldi. Maktabda dars jarayoni. O‘qituvchi endigina birinchi sinfga qadam qo‘ygan bolalarga bor

mehri bilan dars bermoqda. Bir vaqt eshik taqilladi. O‘qituvchi darsdan chalg‘imaslik uchun bolalarga dars berishni davom etdi. Sinoyalar ichida sinfxonaga bir erkak, ikki ayol bostirib kirdi. Ular kirishi bilan ikkinchi partada o‘tirgan o‘g‘il bola baqirib, yonida o‘tirgan sinfdoshi tomonga tisarila boshladi. Go‘yoki ular tomon insonlar emas, yovuz bir maxluqlar kelayotgandek. O‘qituvchi kutilmagan mehmonlarni to‘xtatishga harakat qilishga urinmasin, ular bolani olib chiqib ketdi.

Aniq bo‘lishicha, er-xotin o‘rtasida nizo chiqqan. Ona esa maktabga kelib, dars vaqtda bolasini qopga solingan mushukday olib ketyapti. Shunda o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: bola o‘z onasidan shu qadar qo‘rqdimi?

O‘qituvchi qarshilik qilishiga qaramay, uni bir burchakka siqib qo‘yish darajasigacha borayotgan insonlarning ma’naviyatiga qaysi mezon bilan baho berish mumkin?

Afsuski, bolalar bilan bog‘liq bunday og‘riqli holatlar bitta yo‘ ikkita emas. Bolajon xalqning “orzu o‘g‘rilari” paydo bo‘ldi,



chamamda. Ota bolani urgan, ona otasining aybi tufayli boladan o‘ch olgan holatlarni ko‘rib hayron qolasan kishi. Nahotki, urush davrida millionlab qochqin bolalarni o‘z

bag‘riga olgan millat onalarining avlodlari o‘z bolalariga mehr berolmasa? Bu oiladagi ijtimoiy muhit, qudalarning qancha sarpo-suruq qilishi, ularning tafakkur

olamidani ko‘ra moddiy ahvolini hisobga olish evaziga qurilgan oila, farzandlarini o‘qitish o‘rniga yosh holida katta hayotga uloqtirish kabilarining in’ikosi emasmi kan deya o‘ylaysan kishi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Amerika Yaponiyani bombardimon qilish jarayonida maktabda bo‘layotgan suhbat. O‘quvchi:

— Ustoz, tashqarida millatning taqdiri hal bo‘lyapti. Biz siz bilan bu yerda nima uchun kitob varaqlab o‘tirmizmi? Undan ko‘ra qo‘lga qurol olib, jang qilsak bo‘lmaydimi? Ustoz:

— Sen millatning taqdiri tashqarida hal bo‘lyapti deb o‘ylaysanmi? Yo‘q. Millatning taqdiri mana shu to‘rt devor orasida, sen bilan mening o‘rtamda hal bo‘lyapti. Agar yaxshi o‘qisang, kelajakda katta muhandis bo‘lasan. Yaponiya sanoat va harbiy jihatdan yanada qudratli bo‘lishiga hissa qo‘shasan. Hozirgi taqdir 20-30 yil oldin hal qilib bo‘lingan. Lekin hozir yaxshi o‘qisak, 20-30 yildan

keyingi taqdir bizning qo‘limizda bo‘ladi. Shuning uchun o‘qi, bolam.

Bugun Yaponiya taraqqiyot asrini boshdan kechirmoqda. Bu o‘z vaqtida yurt farzandlariga berilgan tarbiya natijasi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar ham aynan shunga qaratilgan. Shu bois, ta’lim-tarbiya borasidagi eng tashabbuslar ilgari surilmoqda. Katta minbarlarda muammolar yechimi, savollarimiz javobi faqat va faqat ta’limda ekanı ta’kidlanmoqda. Ha, barcha masalalar yechimi ta’lim va tarbiyadir. Uning kutilganiday samara berishi esa sizı bizga bog‘liq. Ezgu tashabbuslarga hamohang ravishda ish tutib, yaponiyalik o‘qituvchiday ta’lim-tarbiya millat kelajagi ekanini yoshlarga uqtira olishimiz kerak. Zero, kelajak bunyodkorlari millat taqdiri o‘z qo‘lida ekanini yurak-yuragidan his etsin.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri